



SAMARQAND VILOYATI XALQ TA'LIMI XODIMLARINI
QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI
OSHIRISH HUDUDIIY MARKAZI

XORIJIY TILLARNI O'QITISHNING ZAMONAVIY PARADIGMALARI

RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY
KONFERENSIYA
TAKLIFNOMA VA DASTURI

2021-yil

21-DEKABR



2. Ramazan Q., Qajjumij X. Grammatik. Sarf. Orta maktablar ucun darslik. I qism. –T.: Oquv peddavnasr, 1937. –149 b.
3. Saidov M. O'zbek maktablarining 5-sinflarida ona tili ta'limi jarayonida tafakkurni rivojlantiruvchi o'quv topshiriqlari va ulardan foydalanish metodikasi: ped. fan. nom-di diss. avtoref.TDPU. –Toshkent, 2000. – 25 b.
4. Mengliyev B. va boshqalar. Onatili. II qism.10-sinflar uchun darslik. –Toshkent, 2020. 5-b.
5. G'ulomov A., Ne'matov H. Ona tili ta'limi mazmuni. –T.: O'qituvchi,1996. – 23-b.
6. Mahmudov N., Nurmonov A., Sobirov A., Qodirov V. Ona tili. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 5-sinflari uchun darslik –T.:Ma`naviyat, 2015. – 120-b.
7. Mahmudov N., Nurmonov A., Sobirov A., . Ona tili. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 5-sinflari uchun darslik –T.:Ma`naviyat, 2020. – 12-b.

TA'LIMYIY KORPUS – LINGVODIDAKTIKADA ASOSIY TEXNOLOGIK VOSITA

*M.A.Abjalova-
Alisher Navoiy nomidagi ToshDO'TAU
filologiya fanlari bo'yicha
falsafa doktori (PhD), dotsent*

***Annotatsiya.** Bugungi kunda jahon ta'lim tizimida til korpuslari inkor etib bo'lmaz ish quroliga aylanib bo'ldi. Til korpuslari qisqa vaqt ichida misollar massivini manbasi bilan ko'rsata oladigan, statistik ma'lumotlarni taqdim etadigan, leksikografik ma'lumotlarni beradigan yirik matnlar tizimi hisoblanadi. Ayniqsa, ta'limiy korpus ta'lim jarayonida bu borada muhim vosita sanaladi.*

Mazkur maqolada o'zbek tilining ta'limiy korpusini yaratish omillari, tamoyillari, modellari, ma'lumotlar bazasi va imkoniyatlari xususida so'z yuritildi.

***Kalit so'zlar.** Ta'limiy korpus, leksikografiya, chastotali lug'at, terminologik lug'at, ma'lumotlar bazasi, model, axborot tizimi.*

***Annotation.** Today, language corporuses have become an indisputable tool in the global education system. Language corporations are large text systems that can provide many examples in a short period of time, provide statistics and lexicographic information. The educational corpus is an important tool in this regard, especially in the educational process.*

The article examines the factors, principles, models, databases, architecture, information systems and opportunities for creating an educational corpus of the Uzbek language.

***Key words:** educational corpus, lexicography, frequency dictionary, terminological dictionary, database, model, information system.*



Ta'limiy korpus – maktab darsliklari va o'quv lug'atlariga asoslangan til korpusi bo'lib, o'zbek tili Milliy korpusining xususiy (tarkibiy) turi hisoblanadi. O'zbek tilining ta'limiy korpusi AM-FZ-201908172 raqamli “O'zbek tili ta'limiy korpusini yaratish” mavzusidagi amaliy loyiha doirasida yaratildi, 2021-yilning 23-aprelida dastlabki taqdimoti o'tkazildi, hozirda uning bazasi boyitililmoqda va takomillashtirilmoqda. Ma'lumki, til korpuslari til ta'limi – lingvodidaktika, lug'atlarni yaratish, shuningdek, turli ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirish, tilni diaxron va sinxron aspektda o'rganish, nutqiy kompetensiyani rivojlantirish, so'z boyligini oshirish, gap modellarini shakllantirishda o'ta muhim ish quroli hisoblanadi. Ta'limiy korpusning yaratishi esa ona tilini va uni xorijiy til sifatida o'rganilishida benazir texnologik o'quv quroli hisoblanadi. Shu bois o'zbek tilining ta'limiy korpusi “O'zbek tili Milliy korpusini yaratish konsepsiyasi”ning ilk yirik bosqichi hisoblanadi.

Ma'lumki, kompyuter texnologiyalarining korpus tilshunosligida qo'llanilishi natijasida til korpuslari asosida so'zning qo'llanish davri va chastotasini aniqlash, terminologiya sohasini rivojlantirish, gap qurilishini o'rganish va tahlil qilish, tarjima dasturlari uchun n-tilli baza yaratish, uslubiyatni o'rganish, elektron lingvodidaktikani rivojlantirish, ayniqsa, turli lug'atlarni yaratish imkoniyatlarining kartotekadan avtomat jarayoniga o'tildi va bemiql qulayliklarni yuzaga keltirdi [1]. Lug'atlarni tuzish masalasida til korpuslarining foydaliligi, ayniqsa, chastotali lug'atlarni yaratish, muayyan soha terminologiyasini shakllantirishda muhim sanaladi. Shuningdek, ikki yoki ko'p tilli parallel korpuslarning tarjima bazasi yordamida tarjimon lug'atlari [Boliang Zhang, 2020], avtomatik tarjima dasturlarining lingvistik bazalarini shakllantirishda yirik resurs vazifasini bajaradi.

Umuman, ko'p maqsadli va polifunksional til korpusi – muayyan tilning Milliy korpusi hisoblanadi. Bunday korpus bazasida

- 1) tilning barcha uslublariga mansub o'ta katta hajmdagi matnlarning bo'lishi;
- 2) matnlarning lingvistik, morfologik va sintaktik jihatdan teglanishi;
- 3) korpusning meta-ma'lumotlari mavjud bo'lishi zaruriy talablardan hisoblanadi.

Mazkur talablar Milliy korpusning zaruriy lingvistik va lingvodidaktik texnologik vositaga aylanishini ta'minlaydi. Ta'limiy korpus Milliy korpusning xususiy turi hisoblanib, asosan, ta'lim jarayonida til o'rgatish [Nina Vyatkina, 2020], ta'lim jarayonida turli amaliy mashg'ulotlarni bajarish, tadqiqot jarayonida matn elementlaridan foydalanish, ta'limga oid fan sohalari terminologiyasini shakllantirish, ta'lim tezaurusini shakllantirish kabi masalalarda asosiy vosita hisoblanadi.

Lug'atlarni tuzish uchun korpus katta hajmli manba vazifasini o'taydi. Vaqt o'tishi bilan korpus kuchli informatsion resursga aylandi. Korpus asosida kompyuter yordamida lug'atlar avvalgiga nisbatan tezlik bilan tuzilmoqda va qayta ishlanmoqda. Masalan, rus tili milliy korpusi asosida yaratilgan bir qancha lug'atlarni tilga olish mumkin [Ляшевская, 2009]. E'tiborlisi, dinamik o'zgaruvchanlikka ega til



korpuslariga asoslangan elektron lug'atlar glossemasi (bosh so'zi) va lug'at maqolasi "eskirish"ga ulgurmaydi.

Terminologiya sohasini rivojlantirish maqsadida bazadagi millionlab turli sohalarga oid matnlardan muayyan soha terminologiyasi shakllantiriladi.


Korpus asosida terminologik lug'atlarni yaratishning ikkita sababi bor:

1) korpusda ulkan hajmdagi turli sohaga oid yozma va og'zaki matnlar annotatsiyalangan holda jamlanadi. Bunday imkoniyat, ayniqsa, umumkorpus, ya'ni tabiiy tilning milliy korpusida bo'ladi. Annotatsiyalash, ya'ni har bir so'zga grammatik va semantik izoh berilishi natijasida muayyan so'zning sohalari kesimida izohi ma'lum bo'ladi va umumso'z yoxud terminologik xususiyati yuzaga chiqadi.

2) muayyan sohaga mansub matnlarda qo'llanilgan so'zlar chastotasini aniqlash orqali faol qo'llanilayotgan [Mansur Alp To'çoglu, 2019] termin va nafaol terminlarni ajratib olish imkoniyati mavjud bo'ladi.

O'zbek tili ta'limiy korpusi tuzilishi va imkoniyatlari. Mazkur korpus korpus interfeysi (1), qidiruv tizimi (2) va lug'atlar rukni (3)dan iborat. "Lug'atlar" ruknida izohli lug'at, omonim, sinonim, paronim va antonim so'zlar lug'atlari leksikografik resurs sifatida joylangan. O'zbek tili ta'limiy korpusi saytining birinchi sahifasida korpus va uning tuzuvchilari haqida asosiy ma'lumot, o'ng tomondagi menyuda istalgan sahifaga o'tish imkoniyati mavjud. Korpus bo'yicha qidiruv foydalanuvchiga quyidagilarni aniqlash imkoniyati beradi:

1) muayyan so'zning barcha shakllarini misollar massivi bilan aniqlash;



1-rasm. "kitob" so'zi qatnashgan misollar massivi

2) misollarning manbasini aniqlash;





2-rasm. “hayot” so‘zi ishtirok etgan abzats va uning manbasi nomi
3) manba haqida ma’lumot olish; Masalan:

Kontekst:

Tinch-osoyishta hayot, barqarorlikning eng muhim sharti – beg'amlik va beparvoikka yo'l qo'ymasdan, doimo ogoh, har tomonlama sezgir va uyg'oq bo'lish, tarikdan, hayotdan xulosa chiqarib yashashdan iborat. Prezidentimiz kitobida ana shunday qarash, kayfiyat barcha vatandoshlarimizning hayotiy maqsadiga aylinishi lozimligiga alohida urg'u berilgan.

[Oldingi](#) [Keyingi](#)

Manba:

Nomi	Vatan tuyg'usi: Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 5-sinflari uchun o'quv qo'llanma
Muallif(lar)i	Xayriddin Sultonov 1959 , Murtazo Qarshiboev 1989
Yaratilgan vaqti	27.02.2015
Nashr yili	2015
Nashr parametri	-
Nashriyoti	Ma'naviyat
Qo'llanish sohasi	axborot texnologiyalari
Adabiy turi	Dramatik
Janri	adabiy maktub
Voqea vaqti va joyi	-
Matn tipi	detektiv
Uslubi	Ilmiy
Auditoriya yoshi	18 yoshgacha
Auditoriyaning salohiyat darajasi	omma uchun
Ichki korpus turi	ta'limiy
So'z(shakl) miqdari	0
Teglovchi	Amonturdiyev Nurali Rashidovich

Активация Windows
Чтобы активировать Windows, перейдите на сайт Windows.com

3-rasm. 5-sinf “Vatan tuyg‘usi” adabiyotiga berilgan metalingvistik ma’lumotlar

4) so‘zning izohi bilan tanishish;

5) so‘zning morfologik tahlili, bo‘g‘inlarga ajralishini o‘rganish va uning talaffuzini tinglab bilish;

6) qidiruvga berilgan so‘z bilan uning o‘ng va chap tomonidan birikish imkoniyatiga ega so‘zlar ro‘yxatini olish (N-gramma texnologiyasi);

7) so‘zning foydalanish chastotasi yoki statistikasini bilish;

8)so‘zning shakl va ma’no munosabatlarini aniqlash (omonim, paronim, antonim, sinonim shakllari)

Mazkur imkoniyatlar korpus ruknlari doirasida namoyon bo‘ladi. Misol tariqasida korpusning “Lug‘atlar” ruknidagi qidiruv satriga “hayotimizda” so‘zshaklini yozib natijani ko‘ramiz:

1) “so‘z tarkibi” – avtomatik morfologik tahlil natijasida “hayotimizda” so‘zshaklining asosi “hayot” ekanligi ma’lum bo‘ladi;

2) “So‘z bo‘g‘inlari” ajratib ko‘rsatildi;

3) *hayot* so‘zining izohi taqdim etildi;

4) zid ma’noli shakllari mavjud emasligi ma’lum bo‘ldi;

5) *hayot* lemmasining ma’nodoshlari taqdim etildi: *tirik, turmush, umr*;

6) talaffuzdoshi (paronimi) mavjud emasligi aniqlandi.



O‘zbek tili milliy korpusi

Bosh sahifa Lug‘atlar Kirish

hayotimizda

So‘z tarkibi: [hayot] - imiz (Egallik qo‘shimchalari e Sintaktik shakl yasovchi) - da (Kelishik qo‘shimchalari e Sintaktik shakl yasovchi)

So‘z bo‘g‘inlari: ha-yo-ti-miz-da

Izoh(lar)i: mavjud emas.

Antonim(lar)i: mavjud emas.

Sinonim(lar)i: tirik, turmush, umr [a]

Paronimi: mavjud emas

Izoh(lar)i
 Omonim(lar)i
 Sinonim(lar)i
 Antonim(lar)i
 Paronimi

Активация Windows

4-rasm. O‘zbek tili ta’limiy korpusi “Lug‘atlar” ruknida “hayotimizda” so‘zshakli qidiruvi natijasi

Mazkur misoldan anglashilganidek, ta’limiy korpus tarkibida sinonimayzer dasturi mavjud bo‘lib, boshqa resurslarga bog‘liq bo‘lmagan holda sinonimlar bazasidan nomorfologik, ya’ni so‘zning lemmasiga tayanib uning ma’nodoshi taqdim etiladi.

Ta’limiy korpus hajmi. Ayni damda o‘zbek tili ta’limiy korpusi lingvistik ma’lumotlari hajmi quyidagi ko‘rsatkichga ega:

№	Baza birligining nomi	soni
1	kitoblar	129
2	Internet matnlari	101 835
3	so‘z turkumlari teglangan so‘zlar	42 320
4	gaplar	1 221 769
5	kontekstlar	1 147 658
6	izohlangan so‘zlar soni	3260
7	sinonim so‘zlar	993
8	antonim so‘zlar	870
9	paronim juftliklar	558

Amaliy natija

Bir necha yillar davomida olib borilgan tadqiqotlar va 2020-2021-yillardagi amaliy sa’y-harakatlar natijasida Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti Kompyuter lingvistikasi va raqamli texnologiyalar hamda Amaliy tilshunoslik va lingvodidaktika kafedralari hamkorligida AM-FZ-201908172 raqamli “O‘zbek tilining ta’limiy korpusini yaratish” mavzusidagi amaliy loyiha doirasida O‘ZBEK TILINING TA’LIMIY KORPUSI yaratildi. Bugungi kunda mazkur korpusda

- 1) mosfoanalizator (avtomatik morfologik tahlil);
- 2) so‘z(shakl)ni bo‘g‘inlarga ajratish;



- 4) izoh (lar)ini taqdim etish;
- 5) antonimlarini ko'rsatish;
- 6) sinonimizator (qidiruvga yozilgan so'zga uning ma'nodoshlarini taqdim etish dasturi);
- 7) so'zning talaffuzdosh (paronim)ini uning izohi bilan berish;
- 8) qidiruvga berilgan so'z bilan bog'liq "Ona tili qomusiy lug'ati"dan ma'lumotlarni taqdim etish;
- 9) qidiruvga berilgan so'z qatnashgan iboralarni ko'rsatish;
- 10) uning turli xususiyatlari bo'yicha darajalanish qatorini namoyish etish imkoniyatlari mavjud.

O'zbek tili milliy korpusi

Bosh sahifa Ta'limiy korpus Izlash **Lug'atlar** Kirish

ahil **Izlash**

So'z tarkibi: [ahil]
So'z bo'g'inlari: a-hil
Izoh(lar)i: ahil [a-hil]
1. O'zaro juda totuv munosabatlil, inoq-intifoq. *Bosqinchilar nima bo'lsa ham bu ahil odamlarni bir-biridan judo qilish, oralariga nizo solib, keyin bosqin qilishga ahd qilishibdi. S. Ahmad, Jimjitlik*

Antonim(lar)i: noahil, ters, noittifoq
Sinonim(lar)i: inoq [mo'g']
Paronimi: ahl - [a] Bir soha, kasb odamlari; bir joyda yashovchilar.
Qomus: mavjud emas.
Ibora(lar): mavjud emas.

Darajalanish qatori:(2 ta) To'liq ko'rish

1. **Inoq - ahil - qadrdon**
Bo'yog'iga ko'ra
(ifoda belgisining kuchlilikiga ko'ra)

2. **Uyushgan - hamjihat - intifoq - totuv - inoq - ahil**
Bo'yog'iga ko'ra
(belgini kuchli-kuchsiz ifodalash darajasiga ko'ra)

5-rasm. O'zbek tilining ta'limiy korpusi "Lug'atlar" ruknida qidiruv natijasi

Ta'limiy korpusdagi imkoniyatlar uning asosiy texnologik va zamonaviy innovatsion resurs bo'lib xizmat qilishini ta'minlaydi. Shu bois o'zbek tilining ta'limiy korpusidan nafaqat pedagog va o'quvchilar, balki lingvistlar, leksikograflar, kompyuter lingvistlari, dasturchilar, muharrirlar, tarjimonlar, jurnalistlar, noshirlar, olimlar va boshqa har qanday soha mutaxassisi keng foydalanish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Umuman, til ta'limi hayotdan uzilib qolmasligi uchun muntazam ravishda matnlar bazasi yangilanib boriladigan korpusga tayanish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1 O'zbek tili milliy korpusi – muhim madaniy voqelik (davra suhbat) / "Ma'rifat", 11.08.2021. № 32 (9357).

2 Boliang Zhang, Ajay Nagesh, Kevin Knight. 2020. Parallel Corpus Filtering via Pre-trained Language Models. *10.18653/v1/2020.acl-main.756*



- 3 Mansur Alp Toçoglu, Adil Alpkoçak. 2019. Lexicon-based emotion analysis in Turkish. *Turkish Journal of Electrical Engineering and Computer Sciences* (2019),10.3906/elk-1807-41
- 4 Nina Vyatkina. 2020. Corpora as open educational resources for language teaching. *Foreign Language Annals*, 10.1111/flan.12464
- 5 Ляшевская, О. Н., Шаров С. А. 2009. Частотный словарь современного русского языка (на материалах Национального корпуса русского языка). М.: Азбуковник.
- 6 <http://uzschoolcorpara.uz/> – O'zbek tilining ta'limiy korpusi

NOMILLIY GURUHLARDA DAVLAT TILINI O'QITISHDA QIYOSIY TAHLILNING ZARURATI

S.A.Yuldosheva -f.f.n. dotsent,
Samarqand viloyati XTXQTMOHM

Annotatsiya. Ushbu maqolada jamiyatimizda davlat (o'zbek) tilida so'zlashishning darajasi, uning nufuzi va mavqeyini oshirishda uchrayotgan muammolar, ta'lim berishdagi muammolar, nomilliy guruh o'quvchilariga tilni o'qitishdagi yondashuv, sifatli ta'lim berish kabi masalalarga e'tibor qaratilgan.

Kalit so'zlar. Davlat (o'zbek) tili, ona tili, tilni o'rganmoq, nomilliy guruh, talaffuz, so'z, jumla, ko'nikma va malaka.

“O'zbek tili davlat tili sifatida xalqimizni birlashtiradigan, jamiyatimizni ulug' maqsadlar sari safarbar etadigan qudratli kuch bo'lib maydonga chiqdi. Ayni vaqtda u O'zbekistonning davlat mustaqilligi sari qo'yilgan birinchi dadil qadam edi”-, deb e'tirof etadi Yurtboshimiz O'zR Prezidenti Sh.Mirziyoyev. Darhaqiqat, davlat tili – siyosiy, ijtimoiy va madaniy sohalarda integratsiya (birlashtiruvchi) vazifasini amalga oshiradigan tildir. Shu bilan birgalikda rasmiy til sifatida davlat boshqaruvi, qonunchilik faoliyatida, tashkilotlar hamda jismoniy va yuridik shaxslar o'rtasidagi munosabatlarni o'rnatishda foydalaniladigan hujjat tili hamdir.

“Davlat tili haqida”gi qonun qabul qilinganiga o'ttiz bir yil o'tdi. O'tgan davr mobaynida o'zbek tili grammatikasini soddalashtirish va optimallashtirish, tilimiz nufuzini oshirish va uni targ'ib qilish borasida qanday ishlar amalga oshirildi? Davlatimizda til bilan bog'liq real vaziyatlarni xolis, chuqur va professional tarzda tahlil qilib beradigan, muammolarga yechim ko'rsata oladigan qanday ilmiy tadqiqotlar olib borildi? O'zbek tilini o'rganmoqchi bo'lgan boshqa millat vakillariga mo'ljallangan qanday qo'llanma, adabiyot va lug'atlar yaratildi? Umumta'lim maktablar nomilliy guruhlarida davlat tili o'qitilgani bilan nega bitiruvchilarning hammasi ham o'zbek tilida sof va ravon gapirisha olmaydi? Hattoki, o'zbek yo'nalishini bitirganlarning ayrimlari nega o'z fikrini jozibali, chiroyli ifodalay olmaydilar? Bu kabi savollarga javob berish oson emas, albatta. Yillar davomida